



# The New Uzbekistan Journal of Medicine (NUJM)

**Available online at:** <https://ijournal.uz/index.php/nujm/index>

Volume I, Issue II, 2025

**ISSN: 2181-2675**

## BIOPHYSICS AND MEDICINE: THE MEETING POINT OF MODERN SCIENCES

**Nodira Fayziyeva,  
Zafarjon Orazaliyev**

Tashkent State Medical University,  
Tashkent, Uzbekistan

---

**DOI:** [10.5281/zenodo.15517236](https://zenodo.org/record/15517236)

---

### Article History

**Received:** 07.04.2025

**Accepted:** 26.05.2025

### Abstract

This article covers the content of biophysics, its role and significance in medicine. The importance of biophysics in diagnostic, treatment and prevention processes, as well as its inextricable link with modern medical technologies, is analyzed. The branches of the field of biophysics are currently achieving many achievements in many areas, especially in the field of medicine. The principles of biophysics are the basis of modern medicine. The development of biophysics is directly related to the development of medical fields, in fact, most modern medical devices are based on the laws of physics and work with physical instruments and the laws of physics.

---

**Keywords:** biophysics, medicine, modern science, IT.

---



# The New Uzbekistan Journal of Medicine (NUJM)

Available online at: <https://ijournal.uz/index.php/nujm/index>

Volume I, Issue II, 2025

ISSN: 2181-2675

## BIOFIZIKA VA TIBBIYOT: ZAMONAVIY FANLAR UCHRASHUV NUQTASI

### Annotatsiya/ Аннотация

Ushbu maqolada biofizika fanining mazmuni, tibbiyotdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Biofizikaning diagnostika, davolash va profilaktika jarayonlaridagi ahamiyati, shuningdek, zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilingan. Biofizika sohasi tarmoqlari hozirgi kunda ko 'pgina yo 'nalishlarda xususan tibbiyot sohasida ko'plab yutuqlarga erishilmoqda. Zamonaviy tibbiyot asosida biofizika faninig tamoyillari yotadi. Biofizikaning rivojlanishi bevosita tibbiyot sohalarining rivojlanishiga bog 'liqdir darhaqiqat zamonaviy tibbiyot asboblarining ko 'pchiligi fizika fani qonuniyatlariga asoslangan bo 'lib ular fizik asbolar bilan hamda fizikafani qonuniyatlarini bilan ishlaydi.

**Kalit so'zlar/ Ключевые слова:** biofizika, tibbiyot, zamonviy fan, IT.

### Kirish

Biofizika — biologik tizimlar va jarayonlarni fizik qonuniyatlar asosida o'rganadigan fan sohasidir. U biologiya, fizika, kimyo va tibbiyot fanlarini birlashtirgan holda organizmda kechadigan eng muhim hayotiy jarayonlarni chuqur anglash imkonini beradi. Tibbiyotda biofizikaning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, yangi tashxislash vositalari va muolaja usullari yaratishda bu fan yetakchi o'rinda turibdi.

Materiya harakatining turli shakllari bir- biri bilan aloqadorlikda va bir biriga bog'liq bo'ladi, bu esa avvalgi fanlar qo'shilishidan yangi fanlarning – biofizika, astrofizika, kimyoviy fizika va boshqalarning kelib chiqishiga, shuningdek, bir fan yutug'idan boshqa fanning rivoji uchun foydalanishga sabab bo'ladi.

### Tibbiyotdagi ahamiyati

Hozirgi kunda tibbiyot sohasida tubdan burilish (rivojlanish) bo'lmoqda va bunga asosiy sabablardan biri Biofizika faning kundan kunga rivojlanishini deb aytsak bo'ladi. Dunyodagi global o'zgarishlar va turli xil vaziyatlar insoniyat hayotiga har daqiqada havf solishi mumkin. Misol uchun turli sohalarga ixtisolashgan fabrika yohud zavodlar o'zidan ko'p miqdorda zaxarli va inson hayoti uchun xavf soladiga moddalar ishlab chiqaradi. Xavfli moddalar esa ishchilar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uni tekshiranimiz ko'pgina organlari zaxarlangan bo'ladi. Tekshiruv usullari esa tibbiy texnikalar yordamida olib boriladi.

Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishida biofizika fani muhim fanlardan biri hisoblanadi. Insonning ichki organlarida qanday jarayon va fiziologik o'zgarishlar bo'layotganini oddiy tekshirish usullari bilan o'rganish qiyin va mushkuldir. Hozirgi kunda zamonaviylashgan tibbiyot qurilmalari bilan esa buning iloji bor. Tibbiyotda qo'llaniladigan turli davolash usullari ichida davolashning fizik omillari ham o'rIN topmoqda. Ularning bazi birlari bilan tanishib o'tamiz. Bir insonda xavfli o'smalarni aniqlash va o'sha o'smaning qanday turi ekanligi , qay darajada xavfli



# The New Uzbekistan Journal of Medicine (NUJM)

**Available online at:** <https://ijournal.uz/index.php/nujm/index>

Volume I, Issue II, 2025

**ISSN: 2181-2675**

ekanligini aniqlashga asoslangan usullardan biri bu radiologiyadir. Radiologiya 1950-yildan shakllana boshlangan bo'lib fizika, kimyo, biologiya fanlari bilan uzviy bog'liq. Fizika ion hosil qiluvchi nurlarning fizik holatini, kimyo esa bu nurlarning ta'sirini, biologiya ushbu nurlarning hayotdagi o'mnini tibbiyotda radiologiya ion hosil qiluvchilarning o'zaro ta'sir ettirilib ularning tirik obyekt (insonga) qanday ta'sir etishida kasalliklarni aniqlash va davolashga qo'llanilishini o'rghanadi. Radiologiya turli sohlardagi fanlarni o'z ichiga oladi

Bunga tibbiy radiatsion fizika, texnika, tibbiyotda qo'llaniladigan hosil qiluvchi nurlarning manbaalari, texnika tizimlarini, turli tekshirish usullari, nurlarni qayd qiluvchi klinik sharoitida ularni ushlovchi hamda qabul qiluvchi asboblar kiradi. Tibbiyot OTM dagi talabalar biofizika fanining radioto'lqinli sohasidagi har bir holatini o'rganish lozim.

## Asosiy qism

Biofizikaning asosiy vazifasi — tirik organizmlardagi fizik hodisalarni, masalan, issiqlik almashinushi, elektr signallari, bosim, yorug'lik va nurlanishlarning ta'sirini o'rganishdir. Tibbiyotda ushbu yo'nalish quyidagi sohalarda o'z aksini topgan:

### 1. Diagnostikada biofizika

Biofizikaning yutuqlari asosida EKG, EEG, MRT, rentgen, ultratovush, kompyuter tomografiyasi kabi muhim diagnostik vositalar yaratilgan. Bu usullar organizmdagi to'qima va organlarning strukturasi va funksiyalarini bevosita o'rganish imkonini beradi.

### 2. Terapiyada biofizika

Lazer terapiysi, magnit terapiya, ultratovush terapiyasi kabi fizik omillar asosidagi davolash usullari keng qo'llanilmoqda. Bunda biofizik qonuniyatlar asos qilib olinadi.

### 3. Bioenergetika

Hujayra darajasida energiya ishlab chiqarish va undan foydalanish mexanizmlari bioenergetika orqali o'rGANILADI. Bu yo'nalish diabet, yurak yetishmovchiligi, mitoxondrial kasalliklar kabi holatlarda muhim diagnostik va terapeutik ahamiyatga ega.

### 4. Ionlovchi nurlanish va radiatsion tibbiyot

Onkologiyada qo'llaniladigan radiatsion terapiya aynan biofizik qonuniyatlarga asoslanadi. Radiatsiyaning hujayra tuzilmasiga ta'sirini o'rganish kasallikni aniq nazorat qilish imkonini beradi.

## Xulosa

Biofizika fani tibbiyotning barcha bosqichlarida — kasalliklarni tushunish, tashxislash, davolash va oldini olishda muhim o'rIN tutadi. U zamonaviy tibbiy texnologiyalarning nazariy asosini tashkil etib, tibbiy bilimlarni chuqurroq egallahsga xizmat qiladi. Shu sababli, biofizika fani har bir kelajakdagi shifokor uchun zaruriy va asosiy fanlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot bu - barcha fanlarning uyg'unligida mavjud bo'lgan sohadir. Har bir tibbiyot hodimi faoliyati davomida foydalanayotgan mahsulotlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lgan holda ish yuritsa albatta maqsadga muvofiqdir. Bemorda



# The New Uzbekistan Journal of Medicine (NUJM)

**Available online at:** <https://ijournal.uz/index.php/nujm/index>

Volume I, Issue II, 2025

**ISSN: 2181-2675**

davolash profilaktikasi o'tkazish davomida unga fizik, biologik hamda kimyoviy omillar bilan yetarlicha malakaga ega bo'lgan holda yondashsa samarali natijaga erishish nisbatan osonroq hamda yengilroq kechishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A.A., Biofizika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
2. Ходжаев У.Х. Медицинская биофизика. – Ташкент: ТМА, 2020.
3. Davidov M.E., Medical Biophysics. – Moscow: GEOTAR-Media, 2018.
4. Kozlov A.V., Fundamentals of Biophysics. – Berlin: Springer, 2017.
5. Tibbiy biofizika. Elektron o'quv qo'llanma. – TTA rasmiy sayti: [www.tma.uz](http://www.tma.uz)